1. Kimyoviy jarayon, hodisalarni kuzatish, tushunish va tushuntirish.
2. Element va birikmalarni kimyoviy tilda ifodalash.
3. Kimyoviy modda va jihozlar bilan ishlay olish, tajribalar o'tkazish va amaliyotda qo'llash.

O'quvchilarni kimyo faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirish uchun biz ustozlar har bir mavzuni kompetentlikka asoslangan holda tushuntirishimiz shart. Biz bilamizki, kimyo fani 7-sinfдан boshlab fan sifatida o'tila boshlaydi. Shunday ekan, biz kimyo faniga qo'ygan ilk qadamlaridayoq kimyo fani qanchalik hayot bilan bog'liq ekanligini anglab olishlari uchun kompetentlik asosida tushuntirishimiz lozim. Masalan, 7-sinflarda Moddalarning agregat holatlarini tushuntirayotganimizda qattiq, suyuq, gaz agregat holatlariga hayotiy misollar ya'ni suyuqqa-suv, spirt, sirka kislota; qattiqqa-temir, shisha, osh tuzi gazga-metan, kislorod (nafas olamiz), karbonat angidrid (nafas chiqarganda ajratadigan gazimiz) deb, iloji boricha rasmlar orqali (ko'z oldilarida tasavvurni rivojlantirib)




tushuntirsak o'quvchilar fanga qiziqqa boshlaydilar. Har bir sinfda, har bir mavzuda kompetensiyaviy yondashuv orqali tushuntirsak, kimyo faniga bo'lgan o'quvchilardagi qiziqish yanada ortadi. Uyga vazifa berayotganimizda, test tuzayotganimizda, masala ishlatayotganimizda ham kompetensiyaviy yondashuv dars samaradorligimizni oshirishga olib keladi va biz ko'zlagan yuqori natijalarga erishamiz. Men ham har bir sinfda darsimni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'tganimda hattoki o'yinqaroq o'quvchilar ham qiziqib, yaxshi natijalarga erisha boshladim. Masalan, “Eritmalar” mavzusini o'tganimdan keyin “o'zingiz qanday eritmalarini kundalik hayotda tayyorlagansiz”? - deb savol berganimda, kimyo fanini sinfdagi o'quvchilarga nisbatan past o'zlashtiradigan o'quvchilar ham qo'l ko'tarib javob bera boshladilar.


1)



2)



3)



1) Quyidagi biz kundalik turmushda ishlatadigan moddani formulasini yozing.

2) Rasmda ko'rib turgan chumoli tarkibida qanday kislota uchraydi?

3) Siz ko'rib turgan gugurt kallagida qanday elementlar bor?

Yuqoridagi kabi savollar orqali o'quvchilarni kimyo faniga bo'lgan qiziqishlari, kimyo fani qanchalik bizning hayotimizda kerakligini, ya'ni muhim rol o'ynashini anglab yetadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. G. Raxmatullayev, O. I. Iskandarov. Yu. T. Toshpo'latov, “Kimyo fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish”.

2. I.R.Asqarov va boshq. Kimyo 7-sinf darsligi.

3. I.R.Asqarov Kimyo 8-sinf darsligi.

4. www.uzedu.uz



KIMYO DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Kadirov Mansurbek Kalandarovich

Hazorasp tumani 12-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 964 58 71

mansurbekkalandarovich_1212@inbox.uz

Vaisova Shahlo Qurbondurdi qizi

Hazorasp tumani 44-maktab o'qituvchisi

Telefon: + 998 (99) 506 62 71

vaisovashahlo_44@inbox.uz

Annotatsiya: Maqolada kimyo darslarining samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etilishi xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlari: tabiiy fanlar, innovatsion texnologiyalar, elektron ta'lim.

Bugungi kunda dars jarayoni samaradorligini oshirish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi uzluksiz ta'limi tizimi oldiga bir qator ilmiy va ilmiy-uslubiy yondashuvlar, ta'lim sifatini zamon talablari darajasiga ko'tarishning noan'anaviy usullarini keng qo'llagan holda keskin ko'tarish vazifalarini qo'yimoqda. Shu boisdan, o'quvchilarda texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilish uchun o'qitish usullarini tubdan yangi pog'onaga ko'tarish zarurati davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu muhim vazifalarni hal etishda kundalik turmushga jadal sur'atlar bilan kirib kelayotgan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish muhim rol o'ynashi muqarrardir.

Ta'lim tizimining turli-tuman usullari shakllanib borayotgan paytda o'qituvchi o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalari va ularning elementlarini qo'llagan holda darslar saviyasini oshirish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Innovatsion texnologiyalari (kompyuterli o'qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telekommunikatsiyalar) o'quv jarayonini ratsional loyihalash orqali ta'limning maqsad va vazifalariga erishish samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Innovatsion texnologiyalarini o'quv jarayoniga, ayniqsa, kimyo fanlarini o'qitishda qo'llanilishi o'zining yuqori samarasini bermoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oxirgi paytlarda o'quvchilarning fanlarni, ayniqsa, tabiiy fanlarni o'zlashtirish darajasi pasayib borayotganligi kuzatilmoqda. Buning sabablari: dasturiy o'quv materiallarining murakkablashib borayotganligi, dars soatlarining qisqarishi tufayli materiallarni o'zlashtirish uchun vaqt yetishmasligi, o'quv jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy jihozlarning yetarli emasligidir.

Ta'lim jarayonini rivojlantirish yo'lida pedagog xodimlar tomonidan ta'limning yangi uslubiyotlari, vositalarini tadbiq etish borasida keng izlanishlar olib borishmoqda, bu o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishda pedagogik va axborot texnologiyalarini tobora keng joriy etish, bunda kompyuter texnikalariga alohida e'tibor qaratish dolzarb bo'lib bormoqda.

Bu maqsadlarga erishish uchun tabiiy fanlar, ayniqsa, kimyo fanlarini o'qitishda quyidagilarni hal etish muhimdir:

- kimyo fanlarini o'qitish uslubiyotida kompyuterlashtirilgan o'qitishning asosiy prinsiplari va usullarini nazarda tutish;

- ta'lim jarayonini axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga moslashtirish

- ta'lim oluvchilarda axborot-kommunikatsiya iboralarini shakllanishini ta'minlab borish;

- ta'lim jarayonida sog'lom muhitli o'qitishni joriy etilishini ta'minlash.

Kimyo fanlarini o'qitishda kimyoviy eksperiment muhim o'rin egallaydi. O'qitish metodikasida kimyoviy eksperiment o'zining bir qator jihatlari bilan boshqa tabiiy fanlarni o'qitish metodikalaridan tubdan farq qiladi. Shu sababli, ko'pchilik kimyo o'qituvchilari kimyoviy eksperimentga spetsifik usul va o'qitish vositasi sifatida qarab, kimyoviy fanlarni o'qitish jarayonida bu usulga katta e'tibor qaratmoqdalar.

Ta'lim tizimida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etib borilishi, bunda qo'llaniladigan har bir uslubiyot talabalar faolligini tub ma'noda oshirishi, ularning kimyo asoslarini puxta o'zlashtirishinigina ta'minlab qolmay, balki ularda kuzata bilish, eshita bilish, asosan, fikrlay bilish malakasining shakllanib borishi, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlanishi



uchun mustaqil poydevor xizmatini o‘tashini ta’minlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. Sayidahmedov N. pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003
2. Shoymardonov R.A., Ergashov M.Y. Organik kimyo. – T.: 2013



KIMYO FANINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Soyibboyeva Munavvar

Yangiqo'rg'on tumani
26-maktab kimyo fani o'qituvchisi
+9989907527909

Annotasiya: kimyo fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogic texnologiya, ekskursiya, zamonaviy dars, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Sinkveyn”, “B,B,B usuli

“Menga oxirgi so'zni bering, “Test sinovi” usullari

Kimyoni o'qitishda, ayniqsa, guruhlariga bo'lib, mustaqil topshiriqlarni bajarish yaxshi natijalarga olib keladi. O'quvchilar mustaqil fikrlashadi, ijodiy ishlashga harakat qilinadi, past bilimli o'quvchilar ham “yaxshi” o'quvchilar qatoriga intilishadi va bu holat sinf ko'rsatkichlarini komonaviy taradi. Turli individual, juft bo'lib mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilar bilimi chuqurlashadi, malakalar hosil bo'ladi - bu maqsadga muvofiqdir. Kitob bilan mustaqil ishlashni ko'proq amalga oshirish kerak, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishni yo'lga qo'yamiz, krossvordlar, viktorinalar tuzish. Darsdan tashqari ishlarga, ekskursiyalarga, KVN larga, kechalar o'tkazishni yo'lga qo'ysak yanada yaxshi, chunki kimyo—bu turmush fani va uni o'quvchilar kelgusida qaysi sohani egallamasin kimyoviy bilimlarni puxta bilsa, yetuk inson deya olamiz. Har bir dars ta'lim mazmunini joriy etilishini ta'minlovchi barcha turdagi o'qitish texnologiyalarini o'zida mujassamlashuvini taqozo etadi. Dars o'qitish jarayonini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi o'ziga xos tashkiliy jihatni ifodalaydi va o'qitishni tegishli usullaridan foydalanishni talab etadi. Zamonaviy dars — ma'lum yoshdagi bilim va malaka darajalari yaqin bo'lgan o'quvchilar guruhining o'quv-bilish faoliyatlarini faol va rejali bo'lishini ta'minlovchi tashkiliy jarayon hisoblanadi. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning juda ko'p usullari mavjud. Bu usullardan o'quvchining yosh, psixologik xususiyati, bilim darajasiga qarab foydalanish mumkin. 7-9 sinflarda “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Sinkveyn”, “B,B,B usuli” “Menga oxirgi so'zni bering, “Test sinovi” usullaridan foydalanish yuqori samara beradi. Kimyo ta'limida ilg'or pedagogik texnologiyadan foydalanish borasida bir necha misollarni keltirish mumkin: O'quvchilarni qiziqishini oshirish va mavzu yuzasidan olgan bilimlarini tekshirish va mustahkamlash maqsadida oldindan tayyorlab qo'yilgan Bingo varaqachalaridan tarqatiladi. 7-9 sinf darsliklaridan ijodiy foydalanish va unga qo'shimcha ravishda turli gazeta, jurnal, qo'shimcha adabiyotlar, lug'atlar, internet resurslaridan hamda elektron darsliklar va o'quv filmlaridan unumli foydalanishga o'rgatish lozim. “Kim chaqqon?” o'yini orqali tuzlarni toifalanishi yodga olinadi. Bunda o'quvchilarga tuz formulalari yozilgan yelimli qog'oz tarqatiladi, o'quvchilar jadvaldagi tuz toifalariga mos tuzni yopishtirib qo'yishadi. Eng to'g'ri va tez bajargan guruh rag'batlantiriladi. O'rta tuz Nordon tuz Asosli tuz Qo'sh tuz Kompleks tuz Shuningdek, darslikdagi mavzularni kundalik hayotga bog'lab tushuntirish, ilg'or o'qitish metodlaridan, vositalardan unumli foydalangan holda muammoli, munozarali vaziyatlar tashkil etish texnologiyalar turlarida foydalanish tavsiya etiladi. “Zukkolar bahsi” o'tilgan mavzular yuzasidan berilgan formulalarning nomlarini topishdan iborat. Sharti: kislotalar formulalarining nomini aniqlash Kimyo darsini samaradorligi — uning serqirraligi, keng qamrovli mazmun va shakliga ko'ra turli xilda namoyon bo'lib, mohiyatiga ko'ra darsning asosiy mazmunini o'zlashtirishni o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishishga yo'naltirilganligiga bog'liq. Bulardan tashqari, quyidagi dars usullari ham mavjud: erkin yozish; semantik xususiyatlar tahlili; bir-biridan so'rash; “Zig-zag” strategiyasi; “To'xtab-to'xtab” o'qish strategiyasi; “Insert” strategiyasi; “Kubik” strategiyasi. Bunday darslar o'quvchilarda o'qish, bilim olishga bo'lgan qiziqishlarni uyg'otadi, mustaqil ijodiy izlanishlarini rivojlantiradi, mustaqil ravishda erkin fikrlashlarini kuchaytiradi. Demak, ilg'or pedagogik texnologiyalar o'z o'rnida kimyo ta'lim mazmunining ilmiyligini oshirishga imkon yaratdi. Ilmiylik —kimyo ta'lim mazmunini uzviyligi bilan bevosita aloqadordir. Har ikki jihat kimyo ta'lim samaradorligini ta'minlashiga asos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kimyoni mustaqil o'rganish 8-9 sinflar uchun. – T. “O'qituvchi” 1989
2. Kimyo va hozirgi zamon. – T. “O'qituvchi” 1991



KIMYO FANI DARSLARIGA QO'YILGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Mavlonova Shoira Xursanovna,

Namangan viloyati, To'raqo'rg'on tumani,
21-maktabning 2-toifali kimyo fani o'qituvchisi
tel: 931760572

Annotatsiya: Zamonaviy ta'limning dolzarb muammolaridan biri o'quvchlarni mustaqil hayotiga tayyorlash, ularning manfaatlarini, qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning hayotiy rejalarini ro'yobga chiqarishdir. O'qishni individuallashtirish, bilimlarni faollashtirish, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari, ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining shartlaridan biri sifatida juda katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: kimyo, texnologiya, mashg'ulotlar, o'quvchi, kompetensiya,

Hozirgi kunda mustaqil yurtimizda ilm-fan, texnika va sanoat jadal sur'atda rivojlanayotgan, ijtimoiy, ekologik holat keskinlashib borayotgan paytda o'rta maktablarda kimyo fanini o'quvchilarga chuqurroq, yangicha yondashib o'qitish bir tomondan zaruriyat bo'lsa, ikkinchi tomondan, zamon talabi hamdir. Zamonaviy maktabdagi o'quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularga qanday qilib bilim olishni o'rgatish kerak. Faqat shundagina ular XXI asr axborot jamiyatida muvaffaqiyatga erishishlari mumkin. O'quvchilarda kimyo faniga bo'lgan qiziqish va mehr, shu predmetga mas'uliyatli munosabat uyg'otish, kimyo fanining hozirgi davrdagi roli va o'rnini haqida to'g'ri tasavvur shakllantirishni aynan o'qituvchi bajaradi. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarish uchun o'qituvchining o'zi yangi pedagogik texnologiya va uning vazifalariga bo'lgan talablarini egallashi kerak. Kimyo fanining pedagogik funksiyasi uning insonni umumiy ta'lim olishdagi asosiy vazifalarini aniqlashdagi xususiyatlari bilan aniqlanadi. Bular: 1. Ilmiy dunyoqarash asosini tashkil qilish. 2. Maktab o'quvchisi fikrini rivojlantirish. 3. Maktab o'quvchilarini amaliy faoliyatga, mehnatga nisbatan bo'lgan ta'limini davom ettirishga tayyorlash. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi kimyo ta'limi pedagogik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadlariga muvofiq o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida bilmaslikdan bilishga, sayoz bilishdan aniq va chuqur bilishga tomon yoki oddiydan murakkabga boriladi. O'qituvchi o'qitish jarayonida o'quv - ko'rgazmali vositalardan foydalanishi kimyo ta'limi sifatida ijobiy ta'sir etadi. Ular: sinf doskasi, har xil jadval va tablisalar, modellar, maketli, magnitli applikasiyalar, ekran qo'llanmalari va hokazolar. Kimyo fanidan o'quvchilarning laboratoriya tajribalari yakka, guruh, jamoa holda amalga oshadi. Laboratoriya mashg'ulot joylari oldindan o'quvchiga ajratib qo'yiladi. Amaliy mashg'ulot VII sinfdan boshlab o'tkazila boshlaydi. Har bir amaliy mashg'ulotni o'tkazishda reaktiv, pribor va kimyoviy asbob-uskunalar bilan ishlashning texnik qoidalari, muomila qilish ko'nikmalariga alohida ahamiyat berish, xavfsizlik texnikasi qoidalarga amal qilish talab etiladi. Amaliy mashg'ulotlar ikki xil ko'rinishda bo'ladi: berilgan instruktsiya asosida o'tkaziladigan mashg'ulotlar va eksperimental masalalar yechish bilan bog'liq tajribalar.

Uzluksiz kimyoviy ta'lim jarayonida o'quvchilarni bilish faoliyatini samarali tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati kimyodan tashkil etiladigan ta'lim- tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, kelajakda kasbiy va ijtimoiy faoliyati davomida qo'llay olish kompetensiyalari shakllantiriladi. O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarni yechimini hal etish, eng muhimi o'z sohasi va kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni bilishi zarur. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi kompetensiyaviy yondashuv o'qitish maqsadlariga erishish uchun ta'lim mazmunini boyitish o'quv jarayonini inovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarni tahlil etish imkonini beradigan umumiy prinsiplar yig'indisi hisoblanadi. Kimyo fanidan o'quvchining kompetensiyasi –kimyo fani bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir. Kimyo o'qituvchisi o'quvchilarda kompetensiyani tarkibi toptirish maqsadida o'quv fani mazmunini tahlil etishi, o'qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ishlab chiqarish korxonalariga sayohat va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda



olib boriladigan ishlarni tizim va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalash lozim. Kimyo o'qituvchisi kommunikativ kompetensiyani tarkib toptirishni nazarda tutgan holda kimyo darslarida kelgusida jamiyatda muloqatga kirishishi uchun zarur bo'ladigan og'zaki va yozma nutqni mukammal o'zlashtirishi, o'z fikrini aniq va tushunarli bayon etish, darslik va qo'shimcha adabiyotlardagi matn asosida mantiqiy ketma-ketlikda savollar tuzish, savollarga yozma va og'zaki javob yozish, o'z o'rtoqlari va ustozlar bilan muloqatda muomola madaniyati me'yorlariga amal qilish, kichik guruhlarda ishlash jarayonida guruh a'zolarining fikrini hurmat qilgan holda o'z fikrini bayon eta olish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalariga asoslangan holda o'z fikrini himoya qilish va ishontira olish, darslarda tashkil etiladigan o'quv bahslar va turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur bo'lgan qarorlarni qabul qila olish, o'z ona tili bilan bir qatorda xorijiy tillarni o'zlashtirishiga zamin yaratishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sharoitda o'quvchilarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy maktablarida kimyo fanidan laboratoriya ishlarini o'tkazish buyicha uslubiy qo'llanma. XTV, RTM, Toshkent, 2005.
2. X.T.Omonov., M.N.Mirvoxidova. "Kimyo o'qitish metodikasi" ma'ruzalar matni. 2001.



KIMYO FANINI O'RGANISHDA BILIMLARNING AMALIY RO'LI

Qalandarova Matluba

Xorazm viloyat Yangiariq tumani
18-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: siz bu maqola kimyo fanini nega fan sifatida o'qitilayotgani, qanday amaliy ahamiyatga ega ekanligini va maktab o'quvchilarda kimyo faniga kimyo faniga bo'lgan qiziqishni oshirish haqida bilib olasiz.

Kalit so'zlar: kimyo, fan, atom, modda, sanoat.

Kirish: Kimyo fani ham boshqa fanlar qatori, odamlarning amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan.

Kimyo bu butun bir koinot borliq, o'lik va tirik tabiat demakdir. Vaxolanki tuproq butun bir kimyoviy moddalar va minerallardan tashkil topgan. Bu fan tabiatdagi barcha mavjudotlarning tarkibini o'rganishga asoslangandir. Atrofimizdagi butun borliq kimyoviy moddalardan tashkil topgan. Bu fan moddalardan qanday foydalanishni, moddalarni qanday olishni va inson hayotida qanday ahamiyatga ega ekanligini o'rgatadi. Moddalarni fizik va kimyoviy xassalarini o'rganish kimyo fanining asosiy vazifasi ekanini bildiradi.

Kimyo fanining aynan qachon vujudga kelgani haqida aniq bir ma'lumot yo'q. Bu fan qadimdan mavjud bo'lgan va fan sifatida asta sekinlik bilan rivojlanish davomida shakllana boshlagan. Metallarga termik ishlov berish, tog' jinslarini tarkibini aniqlashni qachondan o'rganila boshlanganligi noma'lumdur. Lekin ovqat tayyorlash, kundalik ehtiyojlar uchun oziq ovqatlarga kimyoviy ishlov berish. Kimyoviy bilimlarni ortib borishi insoniyat rivojida katta burilishga olib keldi.

Xitoyda, Hindistonda, Yunonistonda bunday fikrlar jamlangan. Misrliklar rudalardan temirni suyultirib olish, terini oshlash o'simliklardan dori darmonlar, bo'yoqlar, xushbo'y moddalar olishni bilganlar va sapol buyumlar yasashni boshlaganlar. Barcha xalqlar juda qadimdan bij'ish jarayonini bilishgan. Xar bir xalqni o'ziga xos spirtli ichimligi bo'lgan. Uni dondan, asaldan yoki uzum sharbatidan tayyorlashgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Insonlar juda qadimdan qand, yog' va oqsilaga boy o'simlik mahsulotlarini iste'mol qilganlar. Ular bundan 6 ming yil avval oltin va kumushdan zebu ziynat buyumlari yasashni bilganlar. Eramizdan 2000 yil avval xitoyda qishloq xo'jaligi zararkurandalariga qarshi margumushdan foydalanishgan. O'sha davrda Misrda o'simlik va hayvon organizmlaridan turli bo'yoq moddalar, rux va oltingugurtdan dorivor moddalar tayyorlashgan.

Eramizdan avvalgi V - VI asrlarda qadimgi grek olimlari butun borliqni asosini to'rtta narsa (element)-suv, havo, tuproq va olov tashkil etadi deb tushunrganlar.

Keyinchalik Arastu (eramizdan avvalgi 384-322 yillarda) butun borliq bitta asosiy materiyadan tuzilgan degan nazaryani yaratdi. Uning fikricha to'rtta xassa: sovuqlik, issiqlik, namlik va quruqlikning har xil nisbatda birikishidan suv, havo, olov va tuproq hosil bo'lgan.

Masalan: issiqlik va namlik qo'shilsa havo, namlik va havo qo'shilsa suv hosil bo'ladi. Ular bir biriga aylanishi ham mumkin. Moddiy dunyoga bunday qarash Yevropada XVI asrgacha hukm surib keldi.

O'rta osiyoda VIII - X asrlardayoq Ibn Sino kimyoga oid ko'plab ilmiy asarlar yozgan. U asarlarida kimyoviy moddalarni turmush ehtiyojlarida va turli xil xastaliklarni davolashda foydalanish yo'llarini yozib qoldirgan. Ibn Sino dorivor moddalarni ma'lum tarkibda bo'lishini ta'riflash orqali tarkibning doimoylik qonuniga, ularni sodda va murakkab dorilarga toifalash orqali Atom- molekulyar ta'limotning dastlabki tushunchalari shakillanishiga asos solganligi yurtimizda kimyoviy bilimlar bilan shug'ullanish ta'rixi chuqur ildizga ega ekanligida dalolat beradi.

XVII-XVIII asrlarga kelib kimyo fani g'arb mamlakatlarida keng miqyosda rivojlana boshladi. Fan va texnika taraqqiyoti yangi moddalar yaratish kimyoviy elementlarni alohida ajratib olish imkoniyatlarini yaratdi. Kimyogarlar uchun ma'lum bir tarkibga keltirilmagan katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlashda yangi olingan turli moddalarning toifalarga



bo'linmaganligi, sinflanmaganligi o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Keyinchalik ularni toifalashda ko'zga tashlanadigan belgilari asos qilib olingan va metallar va metallmaslarga farqlangan

Muhokama va natijalar

Har bir jamiyatni, fanni o'rganish bilan birga uning paydo bo'lishi, rivojlanishi yuksalishi va bugungi kungi mavqeiga erishgunga qadar bosob o'tgan yo'li, bu yo'lning ayrim bosqichlari, ularda yashab o'tgan va izlangan olimlar shu fanning yaratilishiga qo'shgan hissalari, hodisa va atrof muhitdagi materiyani o'rganishda ularga yondoshish usullari va ularni o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Kimyoviy hodisalarning qanday qilib kashf qilinganligi va kishilar hayotida qanday o'rin egallashini bilish bu fanni o'rganishda muhim omil va vosita hisoblanadi.

Atom, molekula, kimyoviy element va davriy jadval ularni o'lchov birligini yaxshilab o'rganishimiz zarur

Atom-kimyoviy elementning oddiy va murakkab moddalarning tarkibiga kiradigan eng kichik zarrachasidir

Molekula-moddaning mustaqil mavjud bo'la oladigan va shu moddaning fizikaviy va kimyoviy xossalarini o'zida saqlab qoladigan juda kichik zarrachasidir.

Kimyoviy element – o'zida muayyan xassalarni mujassamlashtirgan va kimyoviy usullar bilan boshqa oddiy moddalarga aylana olmaydigan atomlar turidir. Demak oddiy modda elementning erkin xolda mavjud bo'lish shaklidir. Biroq ba'zi oddiy moddalarda xassalari jihatidan bir biridan farq qiladigan boshqa moddaga aylanish xususiyati mavjud. Bu xususiyat **allarto'piya** hodisasi deb yuritiladi. Masalan: kislorod moddasi rangsiz xidsiz gaz, uning allatro'pik xosilasi azon havo rang qatlamdir.

XULOSA

Mustaqil respublikamizni ilmiy- texnika taraqqiyoti asosida, satsiyal iqtisodiy rivojlanishida kimyo fani muhim ahamiyatga ega. Kimyo fanini yaxshi bilgan har bir texnolog bemalol ishlab chiqarish qila oladi. Ishlab chiqarish zavod fabrikalar qanchalik ko'p bo'lsa insonlar ish bilan taminlanadi, eksport hajmi ortadi, yashash sharoiti yaxshilashadi. Bu fan turmush ehtiyojlarni qondirish, iqtisodiyotni ko'tarishda, insoniyat salomatliguda xam katta ahamiyatga ega fandır. Masalan: havoni tarkibini bilmagan texnolog havoni suyultirish natijasida azot olishni qanday biladi? Vaxolanki o'qituvchilar maktab davridanoq o'quvchilarga shu ma'lumotlarni berishi, bu fan qanchalar amaliy ahamiyatga ega ekanini tushuntirib o'tishi lozim. Shundagina o'quvchi qiziq boshlaydi. Amaliy hayotida nega kerak ekanini hayotiy misollar keltirib tushuntirish lozim. Masalan: qonimizda temir moddasi bor, ammo temir qattiq metall u qanday qilib qon tarkibida bo'ladi dagan savolni o'rta tashlash lozim. Yoki har kun ovqat istemol qilamiz nima uchun? qanday jarayonlar kechadi organizmda qanday qilib ovqat orqali kerakli moddalar organizmga so'riladi?. Shu kabi savollarni muhokamaga tashlash orqali o'quvchining diqqati jamlanadi qiziq boshlaydi. Shu qatorda yurtimizda barpo etilayotga kimyo karxonalari, chunonchi ularda o'nlab to'nna fosfor, sirka siklota, ammiak, nitratlar o'g'itlar, tolalar, shisha, sement, oltinlar olinayotganligi haqida ma'lumotlarni o'quvchilarga yetqazib berishimiz lozim.

Xalq xo'jaligini sifat jihatidan qayta ko'rib yanada yuqoriroq pag'onalariga ko'tarish uchun qator masalalarga kompleks va sistemali ravishda yondoshilgan holda ish ko'rila boshlandi, ko'pgina o'zgarishlar bo'lmoqda.

Adabiyotlar:

1. „Kimyo nazariy asoslar“ Tshkent 2005-yil.
2. Toshpo'latov. Yu. T., Isoqov Sh. S. Anarganik kimyo. T.: o'qituvchi. 1992.
3. Цитович И. К. Протасов П. Н. Методика решения расчётных задач по химии. 4-е изд. - М. Просвещение . 1983



KIMYO DARSLARIDA “AYLANA STOL ATROFIDA” METODINI QO‘LLASH TEKNOLOGIYASI

Satimova Iqbol Ro‘zmatovna

Shovot tumani 32-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: +998 (91) 914 32 82

satimovaiqbol_3282@inbox.uz

Bekberganova Asalxon Arslon qizi

Urganch tumani 27-son maktab o‘qituvchisi

Telefon: + 998 (97) 790 11 03

bekberganovaasalxon_1103@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola “Aylana stol atrofida” metodi orqali kimyo darslarini o‘qitish haqida.

Kalit so‘zlar: Didaktik o‘yin, ro‘lli o‘yin, teatrlashtirilgan dars, “Aylana stol atrofida”, ishchanlik o‘yini.

Respublika prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’limini rivojlantirish, yosh avlodga jahon andozalariga mos bilim, iqtidor va ko‘nikmalar berish, ularni ona Vatanga, milliy istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash borasida ko‘rsatayotgan doimiy g‘amxo‘rligi tufayli ta’lim-tarbiya ishlarining bugungi qiyofasi tubdan o‘zgardi. U mustaqillikka erishib, taraqqiyot yo‘lidan dadil borayotgan mamlakatimiz ruhini, g‘oyalari va intilishlarini o‘zida aks ettirgan ta’lim tizimiga aylanmoqda. Eng asosiysi, mamlakatimizda ta’limning hali jahon amaliyotida kam uchraydigan betakror milliy modeli yaratildi.

Didaktik o‘yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o‘yinlardan iborat. Bu o‘yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ishchanlik o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning faol ishtirok etishini ta’minlash orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish mashqi.

Ro‘lli o‘yin darsi – dars mavzusi bo‘yicha masalalarni o‘rganishda o‘quvchilarga oldindan ma’lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro‘lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars – dars mavzusi bilan bog‘liq sahna ko‘rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo‘yicha chuqur, aniq ma’lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi – tegishli o‘quv fani bo‘yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o‘quv kursi va shu kabilar) asosida o‘tiladigan dars.

“Aylana stol atrofida” metodi

“Aylana stol atrofida” metodi asosida ishlash qoidalari

1. Birgalikda o‘rganish usuliga asoslanadi.
2. Qog‘oz va har xil rangdagi qalamlar kerak bo‘ladi.
3. Guruh a‘zolari atrofida qog‘oz va qalam surilib boriladi.
4. Ishtirokchilar o‘rtaga tashlangan mavzuga oid yuqoridagi masala asosidamasala tuzadi
5. Guruhdoshiga uzatadi.
6. U ham tuzgan masalani boshqa rangdagi qalamda yozib keying ishtirokchiga beradi;
7. Ranglar turli bo‘lishi har bir ishtirokchining shaxsiy fikrini, masala yuzasidan ishtirokini aniqlash uchun kerak bo‘ladi.

8. Fikrlar jamlanib, muhokama qilinib masalaning yechimi topiladi.

Masalan: “Kimyoviy reaksiya turlar” mavzusi yuzasidan masalalar tuzing?

Har bir o‘quvchiga bittadan oq qog‘oz beriladi, qog‘ozda masalalar har xil rangli ruchkalarda yozib chiqiladi.

Birinchi guruh: 20 gr KMnO_4 parchalanganda necha l n.sh.da kislorod ajraladi?

Ikkinchi guruh: masala guruh a‘zolari bilan birgalikda yechiladi va uchinchi guruhga masala tuzib beriladi. 3 g fosfor yonganda qancha P_2O_5 hosil bo‘ladi?

Uchunchi guruh: masala guruh a‘zolari bilan birgalikda yechiladi va birinchi guruhga masala tuzib berilad.

2 gr Al_2O_3 temir bilan qaytarilganda necha gr Al hosil bo‘ladi?



Har bir guruhga aytilgan topshiriqni bajaradi, o`qituvchi tomonidan tahlil qilinib, rag`batlantiriladi.

Bunday darslar o`quvchilarga fanlararo bog`liqlikni o`rgatish orqali ularda odam tuzilishining ilmiy asoslarini to`liq idrok etrok etish, ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlarro'yhati:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Amaliy tavsiyalar. – T.: —Iste'dodll jamg'armasi, 2008.
2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar.– T.: —Fan va texnologiyalarl nashriyoti, 2011.
3. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi Metod.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTpU, 2013.



KIMYO DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Urinova Shahnoza Tairovna

Xorazm viloyati Xonka tumani
28 – maktab kimyo fani o'qituvchisi
+99893 288 77 20

Sabirova Jamila Sobirovna

Xorazm viloyati Xonka tumani
45 - maktab kimyo fani o'qituvchisi
+99897 453 58 83

Annotatsiya: ushbu maqolada kimyo darslarida qo'llaniladigan interaktiv metodlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv metodlar, pedagogik texnologiyalar.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlarga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. e'tirozlar, qo'shimchalar ham “hurmatli”, “sizning fikringizga qo'shilgan holda”, “bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi” kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi.

Interaktiv metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi.

O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi.

Interaktiv meiodlardan foydalanishda o'qituvchi, eng avvalo, darsning texnologik loyihasini tuzib olishi lozim. Darsni texnologik loyixalash uchun esa o'qituvchi interaktiv metod strategiyalari va usullari bilan tanish bo'lishi lozim.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida boy tajriba to'plagan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o'ziga xos ahamiyatga egadir.

Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi “interaktiv” metod bo'lib, hozirda uning chala tarjimai ko'p hollarda “interfaol” deb yuritiladi, “interaktiv” atamasi aslida inglizcha “interaktiv” so'zidan olingan bo'lib, “o'zaro ta'sirlashish” ma'nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o'zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o'quv qo'llanmalarini varaqlaganimizda “o'qitishning interaktiv metodlari” termini qo'llanishini ham guvoxi bo'ldik. Ta'lim berish jarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidadir.

Tasodifiy kashfiyot....

1903 yilda farang kimyogari Eduard Benediktus nitroselyuloza bilan to'la bo'lgan shisha kolbani tasodifan sindirib qo'yadi. Shisha sindi, ammo lekin Benediktus xavfsirab yuzini qo'llari bilan berkitishi bilan qaytib ko'zlarini ocharkan, sodir bo'lgan manzaragahayron qoldi: shisha kolba yorilgan bo'lsa-da, mayda bo'laklarga bo'linib sochilib ketmagan edi. U alohida parchalar holida, lekin xuddi ustidan yupqa plyonka bilan o'zaro birlashtirib qo'yilgan kabi, bir joyda to'planib turardi. Benediktus ushbu tasodifiy ixtironi avtomobil peshoynalari uchun qo'llashni tavsiya etdi. Ixtiro avtomobilsozlikda muvaffaqiyat qozonib, bir necha yuzlab (balki minglab) insonlarni, peshoyna



singanda shisha bo‘laklari yuziga va tanasiga sachrab sanchilib qolishida saqlab qolgan...

Yog‘dulanuvchi professor.

Moskva universiteti kimyo professori Semyon Volfkovich laboratoriyada fosfor moddasi bilan juda ko‘p va uzoq ilmiy tajribalar olib borgan. Ish jarayonida gazsimon fosfor olimning kiyimlariga o‘rnashib, shimilib qolar edi. Shu tufayli ham akademik ishdan so‘ng qorong‘u Moskva ko‘chalari bo‘ylab piyoda uyga qaytayotganida, uning kiyimlari moviy rangdagi shu‘la taralib turar, poyabzalidan esa uchqun chiqayotgandek taassurot uyg‘otar edi. Odatda akademik o‘z ortidan hayrat bilan ergashib kelayotgan avom olomonga e’tibor bermasdi. Biroq, asl mohiyatda bexabar bo‘lgan savodsiz Moskvaliklarning orasida, universitetda ishlaydigan, kechalari o‘zida yog‘du taratadigan «o‘zga sayyoralik», «narigi dunyodan kelgan kimsa» haqida uydirmalar tarqalishi uchun bu narsa yetarli bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. Monografiya Toshkent ,2003.
2. Asqarov I.R., To‘xtaboyev N.X., G‘ofurov K.G. 9-sinf uchun darslik. Toshkent. 2019



ТЕМИР КИМЙОВИЙ ELEMENTINING TARQALISHI, ISHLATILISHI VA TIRIK ORGANIZMLARDAGI VAZIFASI

Yakubov Akbar Baxodirovich

Xorazm viloyati Hazoras p tumani

31-umumta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada temir elementining tarixi, tabiatda tarqalishi, ishlatilishi, inson organizmi va o'simliklar hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: temir, metal, ferrum, izotop, kristallogidrat, gemoglobin, eritrotsit, ion, mikroelement, xloroz, birikma, organizm.

Temir (lotincha Ferrum), Fe — Mendeleyev davriy sistemasining VIII guruhiga mansub kimyoviy element. Tartib raqami 26; atom massasi 55,847. Temir 4 ta barqaror izotop: 54 Fe (5,84%), 56 Fe (91,68%), 57 Fe (2,17%) va 58 Fe (0,31%) dan iborat. Temir qadimdan ishlatib kelingan. Inson dastlab meteorit temirini bilgan. Temirning qadimgi xalqlar tilida atalishi bunga dalildir: qadimgi misrlilar tilida “benipet” — “osmon temiri” ma'nosini bildiradi; qadimgi yunoncha sideros, lotincha sidus — yulduz, osmon jismi bilan bog'laydilar. Milloddan avvalgi XIV asrlardagi xetlar yozuvida temir haqida osmondan tushgan metall deb eslanadi. Roman tillarida temirning rumocha atalish negizi saqlanib qolgan (masalan, fransuzcha fer, italyanchada ferro).

Milloddan avvalgi 2000 - yillarda Osiyoning g'arbiy qismida temirni rudalardan olish usuli topilgan. Shundan keyin temir Misr, Yunonistonda ham ishlatiladigan bo'ldi; jez davrini temir davri egallay boshladi.

Alyuminiydan keyin temir tabiatda eng ko'p tarqalgan metallidir. Yer po'stida massa jihatidan 4,65% temir bor. Temirning 300 dan ortiq minerallari ma'lum bo'lib, ular temir rudalarining asosini tashkil etadi. Temirning asosiy minerallari: magnetit – magnit temirtosh Fe_3O_4 , gematit – qizil temirtosh Fe_2O_3 , limonit – qo'ng'ir temirtosh $2\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$, siderit – temir shpati FeCO_3 , pirit – temir kolchedani FeS_2 .

Temir oddiy modda holatida kumushsimon oq tusli, plastik va mustahkam (pishiq), havoda tezda xiralashuvchi metallidir. Temir yetarlicha yumshoq va bolg'alanuvchan, kuchli magnit xossalari ega bo'lib, issiqlik va elektr tokini yaxshi o'tkazadi. Suyuqlanish harorati 1539 °C, zichligi 7874 kg/m³ ga teng. Mazkur metallning mexanik xossasiga uning tarkibida bo'lgan aralashmalar katta ta'sir ko'rsatadi.

Ishlatilishi. Temir boshqa metallar orasida inson uchun eng katta ahamiyatga ega metallidir. Zamonaviy texnikaning barcha sohalari temir va uning qotishmalari bilan chambarchas bog'liq. Amaliyotda toza temirdan kamroq, lekin uning qotishmalari hisoblanadigan – po'lat va cho'yandan juda keng miqyosda foydalaniladi. Ularning ahamiyati shu darajada kattaki, ular qora metallar deb boshqa metallardan ajratilgan. $\text{FeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ - temir (II)-sulfatning kristallogidrati (temir kuporosi) o'simliklarning zararkunandalariga qarshi qishloq xo'jaligida ishlatiladi. Shuningdek turli xildagi mineral bo'yoqlar tayyorlashda xomashyo sifatida qo'llaniladi. $\text{FeSO}_4 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$ - temir (III)-sulfatning kristallogidrati suvni tozalashda muhim ahamiyatga ega. FeCl_3 – temir (III)-xlorid tekstil sanoatida gazlamalarni oqlash va bo'yash uchun ishlatiladi.

Biologik ahamiyati. Temir biologik jihatdan eng muhim elementlardan biri hisoblanadi. Tirik tabiatda o'simliklar, hayvonlar organizmlarida uchraydi, ko'plab fermentlar tizimiga kiradi. Ba'zi oqsillar bilan birikmalari esa o'ta katta ahamiyatga ega. Masalan, inson va hayvonlar organizmida qonning roli qandayligi, uning funksiyalari bizga biologiya kursidan ma'lum. Qonning kislorod tashiy olish qobiliyati undagi eritrotsit tanachalari bilan bog'liq. Shu eritrotsitlarning asosini temir ioni va globin oqsili tashkil etadi: gemoglobinning bir molekulasida to'rtta Fe^{2+} ioni bo'ladi.

O'simliklarda ro'y beradigan va noorganik uglerodni organik uglerod birikmalariga aylantirish imkonini beradigan fotosintez jarayonida ham temirning roli katta. O'simliklarda temir yetishmovchiligidan xloroz kasalligi kelib chiqadi, o'sishi sekinlashadi va xlorofill hosil bo'lishi kamayadi, ko'payib ketsa ham zarar qiladi, masalan, sholi kam don tugadi. Shu bois bunday holatlarni bartaraf qilishda o'simliklarni mikroelement tarkibli o'g'itlar bilan doimiy ravishda ta'minlab turish lozim.

Inson organizmida (70kg) o'rtacha 4,2 g miqdorda temir mavjud: 0,018% muskul to'qimasida, (0,03-3,8) · 10⁻²% ilikda, 447 mg/l qonda bo'ladi. Insonlar organizmida temir yetishmovchiligidan



kamqonlik (anemiya) kasalligi vujudga keladi. Buning oldini olish uchun ovqat ratsionida temir moddasi ko'p bo'ladigan olma, anor, behi, sabzavotlar, dukkakli donlar, lavlagi, parrandalar tuxumi, hayvonlar jigari, tili, buyragi, talog'i doimiy ravishda bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Temirning noorganik birikmalari bilan bir qatorda uning organik birikmalari ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, temirning tabiiy organik birikmasi gemoglobinning prototip shakli bo'lgan, sintetik usul bilan olinadigan ferrotsen kimyo fani uchun butun bir yangi soha hisoblanib, keng tadqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb qildi. Uning asosida hozirgi kunda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan 100 dan ortiq kimyoviy birikmalar olingan. Temirning ferrotsen birikmalari asosida o'zbek olimlari A.G.Mahsumov, I.R.Asqarov, T.Y.Nasriddinovlar tomonidan sintez qilingan 10 dan ortiq biologik faol moddalar temir yetishmasligi, kamqonlik kasalligini davolashda eng samarali dori sifatida tavsiya etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.A.Parpiyev, A.G.Muftaxov, X.R.Rahimov. Anorganik kimyo. T.O'zbekiston - 2003.
2. I.R.Asqarov, K.G'.G'opirov, N.X.To'xtaboyev. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 9- sinflar uchun kimyo fanidan darslik.T. O'zbekiston -2019.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ

(21-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
